

## МАHMUDXO‘JA BEHBUDIY VA “BEHBUDIYA” KUTUBXONASI

*Ahliddin Tursunov**O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti 3-bosqich talabasi,  
[tursunovahliddin270@gmail.com](mailto:tursunovahliddin270@gmail.com)**Ilmiy rahbar: A.Eshniyazova, f.f.f.d, dotsent*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada “Behbudiya” kutubxonasi, uning Samarqand va Turkiston tarixida tutgan o‘rni haqida ma’lumotlar beriladi, jadidshunoslikdagi, xususan, behbudiyshunoslikdagi ba’zi muammolar ko‘rsatib o‘tiladi.

**Kalit so‘zlar:** Samarqand, Behbudiy, jadid, kutubxona

Turkiston Renessansining asoschisi va uning eng ko‘zga ko‘ringan vakili “Mahmudxo‘janing oti Turkiston tarixida ziynatlik mumtoz o‘run olishga munosib bir otdir”. Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z xalqining manfaatlarini o‘zinikidan doimo ustun qo‘ydi. Xalqning ziyo doirasi kengayishi uchun qo‘lidan kelgan hamma ishni qildi. Turkistonga jadid maktablari kirib kelishida, mintaqada teatrning shakllanishida va rivoj topishida, bir qancha gazeta va jurnallar chop etilishida, nashriyot va kutubxona tashkil etilishida u insonning xizmatlari beqiyos. Xalq uchun barcha sohalarda siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda xizmat qildi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Behbudiy qirq hunarni o‘zida jamladi.

Behbudiy birinchilardan bo‘lib Samarqandda kutubxona faoliyatini yo‘lga qo‘ygan. 1908-yil 11-sentabrda Samarqand hokimining rasmiy ruxsati bilan ushbu kutubxona “Yangi rasta”da ochilgan. Biroq, kutubxonaning ochilishi haqidagi xabar biroz avval chop etilgan. Bu haqda “Turkiston viloyatining gazetisi”da xabar berilgan. 27 bobdan iborat bo‘lgan dastur kutubxonaning barcha rasmiy masalalarini belgilab bergan. (Mahmudxo‘ja bin Behbudxo‘ja. Samarqand kitobxona jamiyati // Turkiston viloyatining gazetisi. 1908. № 58). Kutubxonaga yillik a‘zolik badali 3 so‘mni tashkil etgan. Maqsad ham musulmonlar va samarqandliklarning kam xarj qilib ko‘proq foyda olishiga, ma’naviy olamining boyishiga sharoit yaratish edi. Akademik Naim Karimovning “Mahmudxo‘ja Behbudiy” asarida ta’lidlanishicha, kutubxonani tashkil etish, kutubxona faoliyati uchun general- gubernatorlikdan ruxsat olish oson bo‘lmagan. «...Nikolay davrida kutubxona ochmoq, - deb yozgan edi Hoji Muin, - nashr qilmoqdan ham qiyin edi. Shuning uchun Nikolay taxtdan tushgungacha Toshkand va Qo‘qon kabi markaziy shaharlarda ham mutolaaxonalar muyassar bo‘lmadi.

Lekin Mahmudxo‘janing sabotkorona g‘ayrati bilan 1908-yil may oyinda mutolaaxona jamiyatining nizomnomasi tasdiq qilinub, sentyabr oyinda rasman ochildi». Behbudiyning o‘sha davr siyosatidan yaxshi xabardor ekanligi, siyosiy qarashlari o‘tkirligi uni bu ishda muvaffaqiyat egasi bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Shuni aytib o‘tish kerakki, Behbudiy o‘zi ochgan nashriyot kitoblari savdosi (aslida, xalq ziyosi) uchun Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon, Qo‘qon va Namangan shaharlarida kitob do‘konlari ochadi. Samarqanddagi kitob do‘koni esa uning o‘z uyida joylashgan edi. Behbudiy tomonidan Samarqandda ommaviy kutubxonaning tashkil etilishi ham Samarqand va Turkiston madaniy hayotida jiddiy hodisa bo‘lgan. Kutubxona Samarqandning o‘sha paytda ruslar yashaydigan qismida joylashgan bo‘lib, “Kutubxonai Behbudiy”, deb atalgan. Bu esa, kosaning tagida nim kosa edi, shubhasiz.

Ma‘rifat va ziyo ulashuvchi muassasa faoliyatida Mahmudxo‘ja Behbudiyga o‘z safdoshlari Hoji Muin, Vasliy Samarqandiy va muallim Abdulqodir Shakuriylar ko‘mak bergan. Muassasa fond jihatidan juda boy, xilma-xillikka kitoblar jamlanmasiga egalik qilgan. Jumladan, turli davlatlarda nashr qilingan diniy hamda dunyoviy kitoblar, suratli jurnal va gazetalar, ensiklopediya, lug‘atlar, xarita va atlaslar Samarqand xalqining mutolaasiga hozir turgan. “Kutubxonai Behbudiy” kutubxona vazifasi bilan bir qatorda, kitob savdosiga doir ishlarni ham bajargan. Soddaroq qilib aytganda, bu yangi tipdagi muassasa kutubxona-do‘kon edi. Mazkur muassasaga tashrif buyurgan har bir kishi o‘ziga ma‘qul bo‘lgan kitobni kutubxonaning alohida fondidan sotib olgan. Bu fondida jamlangan kitoblarning bir qismini Behbudiy 1899–1900-yillardagi va 1914-yilgi haj safarlaridan keltirgan. Qolgan kitoblar esa “Kutubxonai Behbudiy” manziliga Peterburg, Qozon, Bog‘chasaroy, Boku, Orenburg shaharlaridan, shuningdek, Eron, Turkiya, Afg‘oniston, Hindiston, Misr, Livandan yuborilar edi. O‘sha davrda turli mamlakatlardan bunday kitob savdosini uyushtirish oson ish emasdi. Bu kishidan omilkorlik, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, keng xalqaro aloqalar va katta moddiy imkoniyatlarni talab etardi.

Ikki yil davomida kutubxona havas qilarli darajada faoliyat olib bordi. A‘zolar va bu ishga yon bosuvchi ko‘ngillilar yetarlicha topilib turdi. Lekin 1910-yilga kelib, kutubxona faoliyati susaya boshladi. Buning bir qancha sabablari bor edi. Jadid-qadim ixtilofi va muttasib ulamolarning xalq orasida tarqatgan uydirma mish-mishlari buning asosi edi. Bu ishlarning mag‘zini chaqa olmagan xalq esa o‘ziga qarashli tirik kelajagini o‘limi uchun o‘zi kurashdi. Diniy muttasiblar kutubxonani kofirxona, zararli joy deb, ota-onalarga farzandlarini u yerga yubormaslikni buyurdi. 1912-yili kutubxonani ochib o‘tirishga zarurat ham qolmadi. Kunlik kelib-ketuvchilar soni maskanning ishchilaridan uncha ko‘p emasdi. Asta-sekin bu holat moliyaviy muammolarni keltirib chiqara boshladi. 1914-yilda esa kutubxona faoliyat ko‘rsatishga qiynalib qoldi. Yillik yig‘ilishda barcha 15 ta a‘zo guvohligida kutubxonani saqlab

turish va iqtisodiy muammoni hal etish uchun spektakl qo'yishga qaror qilindi. Lekin bu tadbirning ma'rifat dargohini jonlantirish uchun zig'ircha ham foydasi bo'lmadi. Mahmudxo'ja kutubxonani o'z hovlisiga ko'chirdi va unga "Behbudiya kutubxonasi" deb nom berdi. Rossiya va xorijda nashr etilgan kitoblar arzon narxda sotilishini ham e'lon qilindi. "Oyina"ning ketma-ket o'nga yaqin sonida sotiladigan kitoblar nomi va narxi berib borilgan. Ro'yxatni ko'zdan kechira turib sobiq kutubxonaning qanday kitoblarga ega bo'lganini bilish mumkin. Jumladan, "Tarixi Eron", "Tarixi madaniyat", "Usmonli rus safari", "Yaman sayohatnomasi", "Tarixi asotir", "Muxtasar tarixi madaniyat", "Hindiston sayohatnomasi", "Ilmi hayvonot", "Latoyifi Xo'ja Nasriddin", "Shohnomayi mumtozi oliy", "Nizomiy kulliyoti", "Bedil kulliyoti", "Masnaviyi sharif", "Haqiqatnoma" kabi kitoblar hamda "Siroju-l-axbor" (Afg'oniston), "Qadinlar dunyosi" (Qozon), "Chehranamo" (Misr), "Hablu-l-matin" (Kalkutta), "Tarjimon" (Bog'chasaroy), "Mulla Nasriddin" (Boku), "Yulduz" (Qozon), "Sho'ro" (Orenburg) singari gazeta-jurnallar o'z davri uchun qimmatli boylik hisoblangan. Mahmudxo'ja Behbudiy vafotidan keyin esa bebaho meros taqdiri bilan qiziquvchi odam topilmadi. "Turkiston" gazetasida keltirilgan "Samarqanda Behbudiy kutubxonasi" maqolasida yozilishicha, kutubxonadan mas'ul ishchilar ham xabar olmay qo'ygan va bir yarim mingdan ortiq (659 dona musulmoncha, 923 dona ruscha) kitob qay holda ekanligi noma'lum qolgan.

Kutubxona Mahmudxo'ja Behbudiy o'ylaganidek keng ravnaq topmagan bo'lsa-da, ziyolilar va ilm ahliga foydasi behad ulkan bo'lgan. Hatto ma'rifatparvar zotning keyingi faoliyati – "Oyina", "Samarqand" nashrlari uchun asos manbalardan bo'lib xizmat qildi deyish mumkin. "Padarkush" dramasi ham ilk bor sahna yuzini ko'rishi bevosita ushbu ma'rifat maskani turtkisi bilan bog'liq. Xullas, eskicha fikrlovchi kimsalar turkisi, ilmsiz xalqning ishtiyoqsizligi oqibatida taraqqiyparvar loyihalardan yana biri muvaffaqiyatsizlikka uchragan.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov N. Mahmudxo'ja Behbudiy – Toshkent-2010
2. [uz.wikipedia.org/Behbudiya kutubxonasi](http://uz.wikipedia.org/Behbudiya_kutubxonasi)
3. [n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-...](http://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/o-zbek-...)
4. Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy – Toshkent-2022